

TARBIYA FANIDA QO'LLANILADIGAN YANGI METODLAR

Keldiyorova Manzura

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta’lim kafedrasи

Katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tarbiya fanida ishlatish mumkin bo‘lgan yangi metodlar berilgan. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan. Maqola oxirida xulosa berilgan.

Kalit so‘zlar: Interfaol metodlar, ruchka metodi, hikoya metodi, dumaloq stol metodi, pedagogik texnologiya.

Bugungi kunda boshqa fanlar singari tarbiya fanini ham yangi interfaol metodlarda o‘tish talab etilmoqda. Pedagogik texnologiya o‘qituvchini ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo‘lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi. Pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo‘llashga asoslanganligi sababli, ularning qo‘llanilishi, o‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri joriy etilishi o‘qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o‘qituvchidan ko‘proq mustaqilllikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o‘z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovasion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirgan bilimlarini o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari interfaol uslublar, innovasion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta’limda qo‘llanishiga oid bilimlar, tajriba o‘quvchilarini bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Bunday metodlardan ba’zilariga izoh beramiz.

“Dumaloq stol” metodi: Topshiriq yozib qo‘yilgan qog‘oz varag‘i davra bo‘lab aylantiriladi. Har bir talaba o‘zining javob variantini yozib qo‘ygach, varaqni boshqa talabaga uzatadi. Keyin muhokama bo‘ladi: noto‘g‘ri javoblar o‘chiriladi, to‘g‘ri javoblarning soniga qarab talabaning bilimlariga baho beriladi. Bu metodni faqat

yozma shaklda emas, balki og‘zaki shaklda ham qo‘llash mumkin. Berilishi mumkin bo‘lgan topshiriqlarga misollar:

- aqliy tarbiyaning hozirgi davr talabi nimada?
- axloqiy tarbiya vazifalari qaysilar?
- ekologik tarbiyaning mohiyati nimada?
- mehnat va iqtisodiy tarbiyaning muhim vazifalarini izohlang.

Shuni esda tutish kerakki, yaxshi qo‘yilgan savol, bu – javobning yarmisini o‘zida jo etgan savoldir.

“Ruchka stol o‘rtasida” metodi. Butun guruhga topshiriq beriladi (masalan, o‘quvchi shaxsining rivojlanishi va shakllanishiga ta’sir etuvchi, shaxs rivojlanishi va shakllanishining asosiy omillarini birma-bir ko‘rsatib o‘tilsin). Har bir talaba bitta javob variantini bir varaq qog‘ozga yozib, uni qo‘schnisiga beradi, o‘z ruchkasini esa stolning o‘rtasiga surib qo‘yadi. Topshiriqqa misol: O‘qituvchining guruhga beradigan topshirig‘i shaxs rivojlanishi va shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni hayotiy misollar bilan sharhlab berish. Ajratilgan 10-15 daqiqa vaqt ichida guruh mumkin qadar ko‘proq sonda javob variantlari berishi kerak. Bir varaq qog‘ozga yozilgan topshiriq bir talabandan ikkinchisiga uzatiladi. Talaba javobni yozib, qog‘ozni keying talabaga uzatadi, ruchkasini esa, o‘ziga ro‘baro‘ qilib, stolga qo‘yib qo‘yadi. Javobni bilmaydigan talaba qog‘ozni keyingi talabaga uzatadi-yu, lekin ruchkasini qo‘lida olib qoladi. Bu metodikaning yana bir sharti: bitta variantni ikki qayta berish mumkin emas, boshqacha aytganda, qaytariqlar bo‘lishiga bu o‘rinda yo‘l qo‘yilmaydi. Topshiriq bajarildi. Javob variantlari yozilgan qog‘oz o‘qituvchida. U o‘scha variantlarni sanab o‘tadi. Variantlar sanab o‘tilar ekan, ularning biri muhokama qilib boriladi: Insondagi tug‘ma qobiliyatni qanday izohlaysiz? Bolani o‘rab turgan ijtimoiy muhit deganda nimani tushunasiz? Va hokazo. «Ruchka stol o‘rtasida» metodi bir qancha afzalliklarga ega. Jumladan, o‘qituvchi mashg‘ulotga kim tayyor, kim tayyor emasligini ko‘rib turadi: – mashg‘ulotga tayyorlanmagan talaba og‘zaki muhokama paytida ko‘rib chiqilayotgan mavzu yuzasidan anchagina foydali bilimlar olishi mumkin; – bu guruhda olib boriladigan ish bo‘lib, talabalar intizomini mustahkamlaydi va ularni jipslashtiradi, chunki o‘z variant ustida juda uzoq o‘ylab o‘tiradigan talaba butun guruhga ajratilgan vaqtini sarflaydi. Shuningdek, talaba mashg‘ulotga tayyor bo‘lmasa, bunda ham u guruhga pand beradi, chunki guruh uning uchun ishlashi kerak bo‘ladi; – talabalar o‘z javoblarini ikki marta: yozma ish paytida va og‘zaki muhokama vaqtida tahlil qilib borishadi. Shunday qilib, ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan mazkur interfaol usullar o‘quvchi-talabalarning mustaqilligi, ishchanligi, uyushqoqligi, xushmuomalaligi, ijodiy fazilatlarini kamol toptirishga yordam beradi. Interfaol usullarni yana boshqaca ta’riflaydigan bo‘lsak interfaol ta’lim jarayonida dars o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Demak, interfaol ta’lim

texnologiyalari va uning muhim tarkiiy elementi bo‘lgan interfaol metodlar ta’lim jarayonini tashkil etish ko‘rsatkichlarining o‘zgarishini ta’minlaydi. Zero, zamonaviy ta’lim doimiy ravishda fan va texnologiya rivoji bilan bog‘liqlikda ta’lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining yangilanib borishini talab qiladi.¹

Bundan tashqari tarbiya darslarida o‘quvchilarga hadislar, hikoyalar orqali murojaat qilish yaxshi natija beradi. Yoki ular mavzuga oid muammoli vaziyatga mos hikoya tuzishlari mumkin. Buning uchun **hikoya metodidan** foydalaniladi. O‘quvchilar hikoya tuzish davomida muammoga ham yechim beradi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, tarbiya dasrlarini qiziqarli o‘tishi uchun interfaol metodlardan foydalanish darsning yaxshi o‘tishini va o‘quvchilarni darsni o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Курбанова, Шоира Нарзуллаевна, Феруза Абдуллаева, and Г. О. Очилова. "ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ–ЦЕЛОСТНАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА." НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: сборник статей IV (2021): 20.
- 2 Kurbanova S. Art as a significant factor of forming world outlook of students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
3. Mukhamadovna T. M., Djamshitovna K. M., Narzullayevna Q. S. Art as a significant factor of forming world outlook of students //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11.

¹ TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH Shoira Narzullayevna Qurbonova Feruza Abdullayeva Buxoro davlat universiteti